

This is not registered version of TotalDocConverter

Bu kitobni shu nashrda yozganga o'tiradigan yagona boshqovoxona shu. Birinchidan, ochiq havoda ovqatlanaman, ikkinchidan, oshqovoq somsa faqat shu yerda yopiladi.

Voh-voh, oshqovoq degani jon-dilim. Aytishlaricha, bolaligimdayoq endigina xamaklayotgan kadini mammaga o'xshatib so'rganim-so'rgan ekan...

Issiqqina oshqovoq somsalarni, odatdagidek, chetdagi uch oyoqli nogiron stolga yoyib, endigina emishni boshlamoqchi bo'luvdimki, tepadan "Qag'-g'!" etgan tovush eshitildi. Mundoq qarasam, konvert changallagan bir qarg'a boshimda shaqildoqdek aylanib turibdi. "Kisht!" dedim. Qarg'a esa, qochish o'rniga bexos pastga sho'ng'idi-yu, xatni stolga tashlab, somsalardan birini changallaganicha yana osmonga ko'tarildi "Iloyim, kekirtagidan teshib chiqsin!" deb qichqirdim yulib yutar "pochtachi"ning ortidan.

Konvertini olib ko'rsam, ustiga: "Oshqovoqxona, chetdagi uch oyoqli stol, Mamatvali Shampanovga", deb yozilibdi.

E, chalasavod! "Shanbanov"ni "Shampanov" debdi. "Shanban"ning "Shanba"dan kelib chiqqaniniyam bilmaydi.

Somsadan bir tishlab qo'yib, xatni ochdim. Sochiqdek keladigan qog'ozda to'rthagina so'z: "Mamatvali plyus oshqovoq, minus satira, barobar ahmoqona tirikchilik".

Na imzo bor, na xayr-ma'zur. Ammo, muallifi shundoqqina tirnog'imning ustida turibdi bu o'sha pismiq satirachining ishi, o'sha g'ulg'ulaboz yozgan buni. Asarlarini yanchiganimda ayrim kasbdoshlarim: "Bekorga ovora bo'psan, sendaqaqlarning tanqidiga pinaginiyam buzmaydi u", deyishgandi. Mana, alam qipti-ku!

Shu desangiz, otam rahmatli askiyachi zotini soliqchidan ham yomon ko'rardi, "xiringlashib o'tirguncha, sigirga bir quchoq o't yulib bersang, ro'zg'orga yarim kosa, bozorga ikki kosa qatiq qo'shiladi", derdi. Mengayam otamdan yuqqanmi, satirasiniyam, yumoriniyam ko'rgani ko'zim yo'q. Bu yoqda vagon-vagon masalalar hal bo'lmay yotibdi, hajvchilarni ko'rsangiz, hanuz "xi-xi-xi, xo-xo-xo, xa-xa-xa".

Mana, bittasining yozgani: "Bu odam yostiqa oyog'ini emas, boshini qo'yib uxlashi, sho'rvadagi karamni avval qo'lida olib, so'ng qoshiqqa solishi bilan emas, qoshiqni to'g'ridan-to'g'ri kosaga botirishi bilan boshqalardan keskin farq qilsa-da, hamon jinnixonada davolanyapti. Chunki, u mudom o'sha savolni takrorlagani takrorlagan: "Kimyo zavodining mo'risini qachon sudga beramiz?!" Buning nimasi kulg'ili? Yozuvchi bizga nima demoqchi? Mo'rini "qora kursi"ga sudrashga urinayotgan odamning soppa-sog'ligiga xalqni ishontirmoqchimi? Ishontirganda ham, shu kuladigan gapmi? Judayam odamlarni kuldiringing kelgan bo'lsa, ana, loaqal Baroq Isrofilga o'xshab otarchilarni mazaxla, davlatga bir tiyinlik foyda keltirmaydigan saqichfurusnlarni fosh qil. Zavodning mo'risiga balo bormi?

O'zimga qolsa, bunaqa subitsiz janrga burun tiqib, ilimimni xor qilib yurmasdim. Nailoj, ustozning ra'yiga qarab...

Bir kuni ustoznikida o'tirib qoldik. Orada desangiz, nozikkina idoraning nozikkina vakili ham bor. Ko'rinishidan mushukday muloyim, ammo gaplari yo'lto'sarning mushtidek lo'nda-lo'nda.

Ustoz meni azaldan yaxshi ko'radi, boisi biron marta ko'ziga tik boqqan emasman. Bu safar ham mehri tovlanib, mehmonga borimni boricha maqtashga tushdi: tanqidchiligidimizning ertangi yulduzi, kallasi naq bilimning uyasi, eng muhimi nihoyatda jasur, tabiatiga yoqmagan yoki siz bilan bizga o'xshash bama'ni kitobxonning ixlosini qozonmagan asarlarni tap tortmay savalab tashlaydi, dedi. Shu yo'sin, gapning qozonida adabiyotni qovuraverdik. Bir payt, "jaz" etib, kapgirga hajvchilik ilindi. Ustoz ko'zimga ma'nodor boqqan edi, "bilasiz-ku, bunaqa shatmoq janrga azaldan toqatim yo'q", dedim.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida biz universal bo'lishimiz kerak, dedi ustoz, burnining uchini o'ynatib. Aks holda siz... aytaylik, hatto biz ham chetga surilib qolishimiz mumkin.

Yuragim bir jizillab qo'ydi.

Shundan keyin ustoz muqovasi rangparroq kitobni olib, ermakka varaqlagan bo'ldi.

Qarangki, mana shuyam satiramish, dedi u kitobni menga uzatib. O'qib chiqdim... Hech nima tushunmadim... G'irt topishmoq!

Bir qishloqi bola poytaxtga kelibdi, na ish, na boshpana, na o'zbekchilikni topolmay qaytib ketibdi.

O'! deya sipo jilmaydi mehmon. Shu zamonda-ya? Bizning jamiyatdami?

Ustoz uni ma'qullab, bosh qimirlatdi:

Hamma gap shunda-da. Shu tipik hodisami?

Kam bo'lmanglar-e! deya miyig'ida kuldi mehmon. Adabiyot shu darajaga tushgan bo'lsa, adabiyotshunoslik oldinroq tugab bitgan ekan-da.

Labiga yopishib qolgan shaftoli po'chog'ini beozorgina chimdib olayotganimda, ustoz suzilgan tarzda picha jimib turdi, so'ng po'choqning og'zidagi qoldig'ini yelkamdan oshirib tuflab, so'zga og'iz juftladi:

Bilaman, anchadan beri matbuotda ko'rinqolmay yuribsiz. Shu kitobni o'qib, bir fikr bildirvoring... ko'pchilikka aralashtirib bo'lsayam... Bosilishiga o'zim yordam beraman.

Mehmon o'sha muloyim ohangda yana gap qistirdi:

Bu yozuvchining ijodidan ancha uzoqman. Lekin, aytishlaricha, tili sal uzunroqmish. Bir hajviyasida hatto tanqidchilarniyam... a? Indamay qo'yib bersa deymen... Uniyam kuragini ezib qo'yadigan mardlar bordir?

Xullas, kuragini o'zim ezib qo'yaqoldim. Mana, endi tipirchilayapti. Shunaqada biram mazza qilaman-ey!

Umuman, nomi satirachi bo'lsa, hammasining burnini g'ishtga ishqalash kerak. Shularning dastidan tuppa-tuzuk xotinin ham aynidi-qoldi hajviy kitobni ochvolib, qiqirlagani qiqirlagan. Bugun uyda qiqirlaydi, keyin ishxonada... keyin ko'chada... Oxiri nima bo'ladi, xudo biladi.

Bu yoqda tinchgina bir oilaga sovuqchilik tushirayotgani yetmaganidek, yana qarg'adan imzosiz xat jo'natishadi, peshanangga laqab yopishtirmoqchi bo'lishadi "plyus oshqovoq" deb...

Ha, aytganday... ho' akaxon, oshqovoq somsadan qoldimi? Yana bitta uzing. Satirachilarning uchma ayg'oqchisi to'satdan rizqimni qiyib ketsa bo'ladimi. Bu kasofatilarning qo'lidan boshqa nimayam kelardi...

Oh, oh, oh, oshqovoqdan qolmaylik, oshqovoqdan!